

## “DUNYO BO‘YLAB”

*Tursunov Asilbek Hayrullayevich*

*Bo‘lajak Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar*

*universiteti talabasi*

*e-mail: [asilbek20050730@gmail.com](mailto:asilbek20050730@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sayohat va uning insonga bo‘lgan tasiri buni qanchalik foydali va manfaatli ekanligi haqida muallif tomonidan bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Sayohat, keng dunyoqarash, vizasiz Gruziya, 21- asr, sayohat jurnalistikasi.

Sayohat – shaxsan men uchun bu madaniy xordiq olishning eng samarali va to‘g‘ri yo‘llaridan biridir, sayohat qilganda insonni fikrlashi ancha teranlashadi aqliy salohiyati tozalanib, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada ortadi. Buni ko‘p insonlarda shaxsan o‘zim guvohi bo‘lganman, nafaqat ko‘ngil ochar taniqli yerlariga borib dam olish balki o‘sha lakatsiya haqida o‘rganib u yerda joylashgan tarixiy va o‘ziga xos qadamjolarga tashrif buyurgan holda o‘sha yerning o‘sha xalqning mintaliteti, milliy urf – odatlari yashash tarzini o‘rganish bu odamga yangi o‘zgacha xissiyot ulashadi, va dunyo qarashini ham sezilarli darajada kengayishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida insonni yana ham madaniy va marifiy tomonlama ham ijobiy tomonga o‘zgarishiga turtki bo‘ladi. Orzularga to‘lgan Amerikadan kengrular vatani Avstraliyagacha, go‘zal tabiati va kuchli texnologiyalar yurti Yaponiyadan uzoq g‘arb Yevropagacha jahonda rivojlangan ajoyib infratuzilmaga ega bo‘lgan ko‘plab davlatlar bor, u yerga insonlar purviqor tog‘larni ko‘rish uchun ba‘zilariga dengiz havosidan bahramand bo‘lish uchun ba‘zilar esa baland osmono‘par binolar og‘ushida borishadi. Ayrim davlatlar oshxonasi bilan sayyohlarni jalb qilsa, ayrimlari tarixiy yodgorliklari bilan mashhur. Bularning barchasidan birvaravayiga bahra olishni istaganlar esa Gruziyani tanlaydi, O‘zbekiston uchun vizasiz dam olish sayohat qilish xususan ekskursiya uchun ham eng ideal tanlov, qulay iqlim va joylashuv esa ayni muddao bo‘ladi. Pankisi darasi, balda sharsharasi, pitareti ibodatxonasi, samsar cho‘qqisi, lagodexi bog‘i, vashlovani milliy bog‘i, sion suv havzasi, sairme kurorti, chiatura kabi mamlakatning go‘zal va tarixi maskanlari sayyohlarni uzoq yillardan buyon o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Sayohatga faqat aylanish dam olish uchun boriladimi? Yo‘q albatta ish bo‘yicha o‘qish, sport, va yana turli xil gastrol safarlar bilan ham yurtidan vatandoshlarimiz safarga otlanishadi. Oxirgi yillarda o‘qish va sport tufayli chet davlatlariga tashrif buyurayotgan o‘ziga ishonchi baland o‘z ustida ishlab tinmasdan mexnat qilib kelayotgan yurtdoshlarimizni

ko‘rib kelajakka bo‘lgan bazi bir insonlarni deb xavotir olinayotgan bo‘lsa bunday yoshlarimizni ko‘rib inson ko‘ngli ancha taskin topadi va shunday ko‘zi chaqnab turadigan bolalar bor ekan kelajagimiz ishonchli qo‘llarda deb aytsak ham bo‘ladi qaysidir ma‘noda. Bilamizki 21- asrda ko‘plab yangi kasblar paydo bo‘lyapti yoki oldin mavjud bo‘lgan kasblarga qo‘shimcha yana yangiliklar kiritilyapti. Xo‘sh sayohat bilan bog‘liq yangi xususan o‘zimizda yaratilgan yangi soha haqida bilarmidingiz? Bu Sayohat jurnalistikasi, dunyo bo‘ylab sayohat qilish ko‘pchilikning orzusi, ammo sayohat qilish uchun pul olganingizda qanday bo‘lishini hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Siz buni sayohat jurnalisti sifatida olishingiz mumkin, sayohat jurnalisti bu turli joylarga sayohat qiladigan, ularni o‘rganadigan, madaniyatini o‘rganadigan va keyin bu haqda yozadigan odam. Har bir kasbda bo‘lganidek sayohat jurnalistikasining ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor, agar sizda ishtiyoq bo‘lsa sayohat va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha murosaga tayyor bo‘lsangiz, unda siz ushbu martabaga kirishingiz mumkin.

Mavzuga oid kichik xulosa qiladigan bo‘lsak sayohat inson har javhada o‘z ishini professional bo‘lib kamol topishi uchun yangi bilimlar olish uchun eng yaxshi amallardan biridir.

Maqola to‘liqligicha muallifning subyektiv fikrlari bilan boyitilgan.